

Ta'lat NARIMOV

BEDOR TUNLAR

(she'rlar, hikoyalar)



“Бухоро” нашриёти-2005 й.

84(59)6-... бадиий адабиёт, —

ШЕЗРАРА


" O'n besh yoshli kapitan"ning yangi "yurishi"

(so'z boshi o'rnida)

Qo'limda 15 yoshli yigitchaning she'rlar to'plami – qo'lyozma nusxasi, **Tal'at Halimov, "Bedor tunlar" !** Birinchi sahifada katta harflar bilan yozilgan kitobcha nomiga uzoq tikildim. Uxlab uyquga to'ymaydigan asov yoshda tun bedorligi haqida o'ylash, mushohada yuritish qaysi o'spirinning xayoliga keladi deysiz. Demak, navnihol satrlar orasida " nimadir " bor. Men o'sha "nimadir"ni izlashga tushdim. Sahifalar oralab eng avvalo Tal'atni she'r zavqidan, zakiyatidan boxabar ekanligini sezdim. Tal'atning she'rlari yalpayib yotgan hissiz maydon emas. Ingichka, xipchabel, asosiysi uyg'oq, ziyrak ko'zli misralarining orastaligi o'ziga tortadi. She'riy yakunlar ibodatdan boshini ko'targan kishining ruhiyatidek tiniq. Pishiq, quyma nazmiy yo'ldoshlikdan qoniqish hosil qilasiz. Gapimiz quruq bo'lmasin. Mana uning " Daryo va kecha" deb atalgan she'rining xotimasi:

Tinmay oqar pishqirib daryo,
Buzib tunning sukunatini.
Kecha tugab subhidam tongga,
Topshirmoqda omonatini.

Oy botmoqda, chiqmoqdadir tong,
Daryo bilan dardlashdim picha.



Zamin uzra chiqsa ham quyosh,
Yodda qolar bu go'zal kecha.

Manzara ko'z oldingizga keldimi?! Xayol qo'ng'iroqlari o'sha xush, xilvat tomonlardan sas berdimi,- demak she'r vazifasini o'tadi. She'r otash, she'r dardkash. She'rning yuragi ham, bezagi ham obraz. Iqtidorli ijodkor Tal'at Halimov she'rilarida o'nlab xushbichim obrazlarga duch keldim. “ Baxmal osmon yulduzga to'la”, “ Tol yuvinar daryo bo'yida”, “ Yomg'ir kutar bobodehqon yurt”, “ Ko'z oldimda loyqa xayolot”, “ O'rtab borar dilni harorat”, “ Gullar xursand raqsga tushar, g'unchasining xushbaxt to'yida ” va hokazo.

So'zni muxtasar qilsak, Tal'atning iqboliga ishonch bor. U she'r bilan qolishga qasam ichib, o'z satrlari bilan muhr bosgan:

She'riyat, sen eng nafis tuyg'u,
Senla ko'ngil ko'chasi obod.
Kel, sharob ichaylik beqayg'u,
Men ham senla qolay umrbod.

Niyating yo'ldoshing, yaxshilar safdoshing, she'riyat
sirdoshing bo'lsin, Tal'atjon!

Dilmurod Jabbor ,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Daryo va kecha

Sharqiraydi daryo betinim,
Har bir toshga urar o'zini.
Tun yuziga mahliyo qalbim,
Go'yo tinglar oying so'zini.

Daryo go'zal... Osmonda yulduz,
O't-o'lanlar qo'ygan suvga bosh.
Oppoq bulut to'sgan oy yuzin,
Koinotda go'yo ulkan tosh.

Tinmay oqar pishqirib daryo,
Ildam yurdim sohil qoralab.
Daryo uzra bulut ostidan,
Oy qaraydi asta mo'ralab.

Shafqat bilmay otilar daryo,
Yemiradi sohil toshini.
Go'zal qirga cho'zib oyog'in,

Olis tog'ga qo'ygan boshini.

Tinmay oqar shag'irlab daryo,

Tinglab shabadaning ovozin.

Otdek asov, jilvasi a'lo,

Chirildoqning to'xtamas sozi.

Daryo go'zal... Osmonda yulduz,

Majnuntollar unga ta'zimda.

Sochlarini yuvganida u,

Yulduz bezak taqar bazmda.

Daryo suvi tindiyu bir pas,

Yana o'zin ilgari otdi.

Tog' ortidan keldi ajib sas,

Chigirtkaning xonishi tindi.

Tinmay oqar pishqirib daryo,

Buzib tunning sukunatini.

Kecha tugab subhidamiga,
Topshirmoqda omonatini.

Oy botmoqda, chiqmoqdadir tong,
Daryo bilan dardlashdim picha.
Zamin uzra chiqsa ham quyosh,
Yodda qolar bu go'zal kecha.

Tun chog'ida

Shabadalar esar ohista,
His etaman gulning nozini.
Qalbim jo'shar, nur o'ynar asta,
Dil tinglaydi g'uncha rozini.

Baxmal osmon yulduzga to'la,
Olislarda miltirar chiroq.
Eslatib qo'y kumush tongimni,
Oy tashlaydi o'tli bir nigoh.

Shabadalar esar ohista,
Nihol tinglar chinor so‘zini.
Go‘zal gullar bo‘lib “orasta”,
Oy nuriga ko‘mgan o‘zini.

Subh qo‘ynida

Subh vaqtida bog‘imga chiqdim,
Subh qo‘ynida gullar uxlagan.
Ushlolmasdan shabnam tomchisin,
Gulning xipcha beli bukilgan.

Shabada gullarni uyg‘otar,
Tol yuvinar daryo bo‘yida.
Gullar xursand raqsga tushar,
G‘unchasining xushbaxt to‘yida.

To‘yib-to‘yib hidlaging kelar,
Tarovatli gulning bo‘yidan.
Tong quyoshi boshin ko‘tarar,
Qush uyg‘onar hurkak uyqudan.

Kuyga solar atrof chiroyin,
Yo'qdir uning zarra alami.
Ko'rganlarim madh etmog'imchun,
Ojiz erur ushbu qalamim.

Istiqlol muborak

Seni farzandlaring jonidan suyar,
Ajib shoirlaring madhingni kuylar.
Adiblaring sening g'ururing tuyar,
Istiqlol muborak ,O'zbekistonim!

Farzandlaring nomi chiqib yomonga,
Darbadar qilindi turli tomonga.
Ming tavqi la'natdir mash'um zamonga,
Istiqlol muborak ,O'zbekistonim!

Shukurki, keldi bu tinch zamonlaring,
Niyati xor bo'ldi ko'p yomonlarning.
Tuproq'ingni asrar mard o'g'lonlaring,
Istiqlol muborak, O'zbekistonim!

Ona

Yo‘limizda intizordir ko‘zlari,
Shunchalar shirinmu uning so‘zlari?
Ajinlar bossa-da go‘zal yuzlari,
Shubhasiz bu - ona mo‘‘tabar ona.

Ko‘zlari biz yotgan jajji beshikda,
Ko‘chadan kech qolsak ko‘zi eshikda.
Malaklar tan berar xushjamollikda,
Shubhasiz bu – ona mehribon ona.

Baxtli bolalik

Yoshlik o‘tib ketar go‘yoki soydek,
Chopardik ko‘chada tinmay yosh toydek,
Yo‘l qolib doimo loydan kechardik,
Qayga ketib qolding, baxtli bolalik?

Cho‘pni minib ot – ot o‘ynardik,
Ko‘cha bo‘ylab “ G‘irot ” o‘ynardik,

O‘zimizni katta odam o‘ylardik,
Qayga ketib qolding, baxtli bolalik?

O‘g‘rincha kirardik birorta boqqa,
To‘yardik olxo‘ri, olma, yong‘oqqa,
“Rahmat” ham nasiya qolar bu yoqqa,
Qayga ketib qolding, baxtli bolalik?

Urush – urush o‘ynardik doim,
Gapirmasdan poylar edik jim,
O‘t ochardik, yiqilardik jim,
Qayga ketib qolding, baxtli bolalik?

Mana ulg‘ayyapmiz asta va sekin,
Yurakda doimo bir armon lekin,
Bir bor bolalikka qaytib qolsaydim,
Qayga ketib qolding, baxtli bolalik?

Oy visoliga

Qorong‘u tunlarda ko‘kka termulib,
Gapiraman oq libos oyga.

Uning visoliga termulib turib,
Ma'yusgina cho'maman o'yga.

Meni chorlar ul "lojuvard qiz",
Kel, ey, yigit sen og'ushimga.
Shunda yulduz so'nadi birdan,
Oy ma'yus yuz buradi ortga.

Qichqiraman: "Ketib qolma oy",
Biroq, u tog'larning ortiga ketar.
Otash nurlarini itarib turib,
Sahna bo'ylab quyosh ham chiqar.

Vatandin ayro...

Qanchalar o'rdilar vatandin ayro,
Tuprog'in zar bilib, yaprog'in yoqut.
Ayrilgan g'aribga chamandir sahro,
Qishi kumush erur, ko'klami barqut.

Vatandan ayrilish naqadar og'ir,
Eslaysan quyoshin turib ilk sahar.
Kindik qon to'kilgan yer unutilmas,
Suv ichsang qaqshaysan, go'yo u zahar.

Sen ko'cha changitgan yurtning bir yoqda,
Bir yoqda tuproqqa belanar ko'z yosh.
Yurtingda yomg'ir ham aziz ne'matdir,
G'urbatda yomg'irlar boshga bo'lar tosh.

Qanchalar o'tdilar vatandin ayro,
Qaraysan atrofing ajabtovur tus.
G'urbatda yashashlik og'ir. Nachora,
Taqdirni burib ham bo'lmaydi afsus.

Erkinlik sharobi

Tutqunlik zardobi, azob qonini,
Yutding-ku, ko'rding sen qancha uqubat.
Erkinlik mayi-chun berib joningni,
Zulmatla jang qilib, kutding saodat.

Qodiriy, Cho'lponlar intildilaru,
Kesildi baxtlari mal'un qo'llarda.
Fitratlar ko'z yoshi to'kdilar ammo,
Usmonning yulduzi so'ndi yo'llarda.

Erkinlik sharobin totding sen yurtim,
Erkinlik nurafshon yo'lni qaytardi.
Barcha shoirlaring, yozuvchilaring,
Bu kun shodon bo'lib shuni aytadi:

“ Shu kunga erishding zahmatkash elim,
Endi bo'yin egma, hecham ko'rma g'am. ”
Bul baxtingni ko'rib, quvonar dilim,
Xalqingning ko'zida hech bo'lmasin nam.

Yomg'ir

Keldi chiqib g'azabla bulut,
Gumburladi chaqmoq ham birdan.
Yomg'ir kutar dehqonbobo yurt,
Yog'iladi bulut bag'ridan.

Kulrang yerlar qora tus olar,

Bu hosildan berar nishona.
Yerdan maysa boshin ko'tarar,
Dehqonbobo aytar shukrona.

Quvongin sen, ey dehqon yurtim,
Hosilingning barakasi shu.
Tabiat sen sepingni yoygin,
Tog' – adiring yashilligi bu.

Gumburlashib osmon qa'ridan,
Yog'iladi yomg'ir ham birdan.

O'tmish nigohi

Yonlarida mayiz va novvot...
Nevara-la qiladi ermak.
Xayol ketar chiqarib qanot,
So'ylar buvi o'tmishdan ertak.

G'am haqida ochilganda so'z,
Nevara ham tortadi azob.
Sovuq tanni tanchaga qo'yib,
Buvi so'zlar ko'z yoshi to'kib.

Sezar bola buvi boshidan,
O'tgan o'sha qaro kechmishin.
Bola qalbi sezadi yana,
Ajinlarda o'tmish nigohin.

Buvi bola boshini silab,
Nevaraga so'ylaydi ertak.
Yonlarida mayiz va novvot,
Birga-birga qiladi ermak.

Navro'z

Zumrad osmon bag'rida quyosh,
Doshqozonda kampir yallasi.
Boychechaklar ko'targandir bosh,
Dilga yoqar yerning allasi.

Dala uzra ajib tantana,
Ko'klamidan quvonar elim.
Erka navro'z kelibdi yana,
Bog' – adirlar naqadar so'lim!

Qish

Son – sanoqsiz oq kapalaklar,
Yerga qo'nib yo'qolib ketar.
Tovlanadi kumush parchalar,
Dilga ajib bir zavq baxsh etar.

Ammo yozni, kuzni quvgan qish,
Qilichini sanchar beayov.
Sovuq ayoz, takkillaydi tish,
Tashqarida ko'rinmas birov.
Lojuvard qish sepini yoygan,
Yiltillaydi uzoqlarda qor.
Ko'klamlarni sog'insa-da dil,
Kumush qishning ajib gashti bor.

Mash'um xato

Tabiat ham insonni sevib,
Asrar edi. Afsuski inson,
Qadrlamas edi uni hech,
Tabiatning shundan bag'ri qon.

Inson olib qurolni qo'lga,
Nabototni dushman deb bildi.
Kirmadi u aslo pok yo'lga,
Shunda ko'plar qarshilik qildi.

O, qushlardan olmadi ibrat,
Doim izlar shuhrat, sharaf – shon.
Endi tushsa boshga musibat,
G'ayur ko'zdan oqar bir kun qon.

Bolaligim

Kechagina changitilgan yo'llarim,
Yoshlik daryosida cho'milganlarim.
Bolaligim! Afsus xayrlashamiz,
Seni o'g'irladi moviy ko'llarim.

O'smirlik! Oyog'imga boylandingmi?
Bolaligim cho'pchakka aylandingmi?

Qalximni kemirar allaqanday g'am,
Seni sog'inaman. O'ylayman bir dam.
O'ylayman kimlardan arazlaganim,
Yig'laganim mening topolmay hamdam.
O'smirlik! Oyog'imga boylandingmi?
Bolaligim cho'pchakka aylandingmi?

Afsus sevinchimdanda o'kinchim ko'proq,
Labimda tabassum lek qalabda titroq.
Mana ulg'ayyapmiz. Bu yaxshi, biroq,
Bolalikni qo'msar yuragim nogoh.
O'smirlik! Oyog'imga boylandingmi?
Bolaligim cho'pchakka aylandingmi?

She'riyat

Nogahon yomg'ir ham izillar,
Qiz ko'zida qatra yosh kabi.
Tomchilar jilmayib silaydi,
Atrofning maftunkor ol labin.

Tiniq tomchi yerga singarkan,
Ko'z oldimda loyqa xayolot.
Kipriklar yoshlarni ushlarkan,
Xayol uchar yasab bir qanot.

Tikilaman huv oppoq bulut,
Insonlarning pok qalbimikin?
Tushayotgan tomchilar nahot,
O'shalarining ko'z yoshimikin?

Oh, savollar samoday cheksiz,
Bariga javob ham osonmas.
Qalb kuyar eh essiz, eh essiz,
Bor dardimga bu ham malhammas.

Bu tuzalmas, bedavo , bir dard,
Unga davo faqat she'riyat!

Dala uzra yoshligim

Dala uzra uzun bir so‘qmoq,
Yoshligimdan qolgan esdalik.
Chekkamizda, ko‘lda, g‘ozlar oq,
Ko‘plar derdi oqlik bu poklik.

Dala uzra uzun bir so‘qmoq,
Ketib borayapman bu yo‘ldan.
O‘sha biz qiynagan o‘rdaklar,
Qo‘l siltaydi men tomon ko‘ldan.

Dala uzra uzun bir so‘qmoq,
Chopgan edim men bu yo‘llardan.
Eh, bu ko‘lda cho‘milganlarim,
Tutganim baliqlar “qo‘lidan”.
Dala uzra uyga qaytaman,
Umrimizni o‘g‘irlar hayot.
O‘ylayman bu umr bir qushda,
Ammo qo‘nmay ketadi hayhot.
Dala uzra erur yoshligim.

She'riyat , sen

She'riyat, sen go'zal farishta,
Yuragimda in qurib olgan.
Sen-la ko'nglim doim sarishta,
Sensiz zulmat bo'g'zimdanda olgan.

She'riyat, sen makkora go'zal,
Ketay desam keta olmayman.
Xasta yurak senla har mahal,
Yo'qsa bir zum tura olmayman.

She'riyat, sen eng nafis tuyg'u,
Senla hayot ko'chasi obod.
Kel, sharob ichaylik beqayg'u,
Men ham sen-la qolay umrbod.

Onamga

Ona! Noming muncha muqaddas,
Bola bo'lib qolay bir nafas.

Erkalanib she'r yozay men ham,
Yasha doim bealam, beg'am.

Senga atab yozaymi qo'shiq,
Qallda mehring yanada jo'shiq.
Poyingda turadi bu olam,
Omon bo'lg'in, mehribon onam.

Lola va tomchi

Tashqarida yig'laydi osmon,
Do'lda qolgan bir giyoh kabi.
Misoli yoqutdek tovlanar,
Tomchining sabuhiy ol labi.
Gul labidan bo'sa oladi,
Erkalanib mayin tomchilar.
Ma'sumgina gullar kuladi,
Tomchilarni suhbatga chorlar.

So‘radi tomchidan atirgul:
“Ayt, nechun, qaylardan kelasan?”
Ul aytar: “Lolaning yuzin sog‘inib,
Kelaman huv osmon qa‘ridan.”

Qizarar lolaning chehrasi,
Hapriqib uradi yuragi.
Ikkisin labida tabassum,
Ko‘ngilning ajib bir bo‘lagi.

Nozik belin bukadi gullar,
Tuyarlar hayotning totini.
Tabiat aytadir quvonib,
Tomchi va lolaning otini.

Qush kabi uchar ko‘ngillar

Subhidamda kezar edim bog‘u – rog‘,
Bu borliq xayolga to‘lgan pallada.

Atrof go'zalligin ta'riflash qiyin,
Gullar ko'zin ochmas ular allada.

Gullarning hididan sarmastu -- sarhush,
Quvnashib, o'ynashib sayrar bulbullar.
Bu jannat bog'ida hech bo'lmas noxush,
Qush kabi uchadi ko'ngillar.

Yomg'ir yog'ar shu choq atrofga,
Gullar ma'yus boshini egar.
Gul boshida shaffof tomchilar,
Ko'z yosh bo'lib, yerga to'kilar.
Gullarni yig'latdi, lek unda ne ayb,
Bulutlar o'zlari yig'lasa.
Ular yetolmagan yerning jamoli,
O'zlarin bag'rini tig'lasa.
Yozuvchi qalami, shoirning ishq,
Bu she'rga bo'lolmas go'zal bir yakun.
Yana kez bu bog'da saharda,
Subhidam havosi naqadar shirin.

Esladim seni

Esar latif, tiniq shabboda,
Kulib qo‘yar erkalab meni.
Sarhush bo‘ldim yutgandek boda,
Qalb qo‘msadi nogahon seni.

Bu shabboda! Dovuldan yiroq,
Ko‘nglim yuzi bir aftodahol.
Buncha achchiq alamli firoy,
Shirinmikan o‘sha pur visol.

Shoirmanki ta‘rif qilaman,
“Zuhrosan Tohiri bo‘lmagan.”
Sarobdiansan yetisholmayman,
Birov bunday dardni ko‘rmagan.

Tun

Jimjit kecha. Tun sukunati ,
Yana qalam tutqazar qo‘lga.
Fikrim teran, qo‘limda qog‘oz,
Lek, nedir bor dilning tubida.

Bu shoirning o‘lmas ijodi,
Isyon qilar haqiqat uchun.
Tun nasimi qalam tebratar,
Qalbim yana kuyasan nechun?

Nega, o‘zing murg‘aksan, qalbim,
Sig‘mayapsan keng ko‘kragimga?
Qichqiraman: “Sen bilarsan tun”,
Tun ilhomi shivirlar menga:

“Ey yosh shoir , uxla, ol orom,
Bu ijoding so‘nmas alanga.”

Tunda

Uzoq o‘yga toldim, tun chog‘i yolg‘iz,
Sharsharadan ko‘chardi quyun.
Oy qaraydi go‘yo go‘zal qiz,
Jozibador, ilhombaxsh bu tun.

Qalam tushar yana qo'limga,
Tun bo'yi u chayqaladi mast.
Qog'oz uzra qurib bir o'yin,
Chopar o'zin ko'targancha dast.

Qalam oldim qo'limga yana,
Qo'lim emas qalamim titrar.
Zabarjadday yiltirar falak,
Qadahini tinmayin chertar.

Sarhush bo'lib chidamay oxir,
Piyolamga to'ldirar chog'ir.
Yo'q! Bu chog'ir tun kushandasi,
U she'rni yo'q qilishga qodir.

Ijod kuyar dil yonar tunda,
Tong otadi shu zayl kunda.

O,She'riyat

O,She'riyat!

Go'zal hislar malikasidan.

Meni etib husningga asir,

Ming yig'latib, bir kuldirasan.

O,She'riyat!

Tutib olib mening qo'limdan,

Alamzorlar sari boshlama.

O'zi to'ydim achchiq hayotdan,

G'amlar girdobiga tashlama.

O,She'riyat!

Dunyo koshonasi sensan-ku,

Ammo meni muncha kuydirma.

Axir yolg'iz shoir menmas-ku,

O'ynagan bir munglig' kuyingga.

O,She'riyat!

Yasa baxt va kulgudan qadah,

G'am – alamdand bo'lsin sharobi.

Dil qonlarin simirar ancha,
Bizni tortmas dunyo girdobi.

Bolalar

Kech kirdi.

Salqin tushib borar ayovsiz,
Derazamdan qaramoqdaman.
O‘yin boshlar bolalar unsiz.

Zavqla boqib ularga tomon,
Dilni bir o‘y o‘rtadi yomon.
Qaytib qolsam edi shu onga,
Bo‘lar edim hayotdan tongan...

Chiqib kelar kulib oy, kemtik,
Bolalar der: “bas endi ketdik” ...
Onalari bag‘rida pish – pish ,
Uxlashadi. Ko‘rib qiziq tush.

Bedor tun

Bir kecha uygʻonib ketibman,
Qolgandi yurakda gʻam choʻkib.
O, yuragim yigʻlaydi yum – yum,
Uni soʻroq qildim men choʻchib.

Erkaladim, avrab – aldadim,
Lekin bir gʻam koʻngilni oʻrtar.
Yuragimni yupatolmadim,
Oh, dardimdan osmon oʻylanar.

Yulduzlarni sochiga taqqan,
Gul yuzlari yashinday chaqnoq.
Barcha yulduz soʻnib boʻldiyu,
Qalbdagi yulduz soʻnmadi biroq .
Neligin bilolmay hayronman,
Tomirda oqadi buyuk gʻam.
Qandaydir gʻalati oʻylarim,
Doim ishonch boʻlsa ham bardam.

O, sizlarsiz eng uzun ertak,
Ko'zimda quvonchmi kuladi.
Nega meni qiynaysan yurak,
Qalbinning bir burchi yig'laydi.

O'lsam meni savol o'ldirar,
Nega qalbdagi g'amlar tumonat.
Nima seni muncha kuydirar,
Nega qalb rishtasi omonat.

Uyg'ondimu ko'zimni ochdim,
Oy so'ylaydi menga ertagin.
Qiynamagin, men nima qildim,
Yolg'iz menmi shoir? Yolg'izim.
Oh, osmon munchalar kengdirsiz,
Tuganmas savolla tengdirsiz.
Yulduzga dardingiz so'ylamang,
Doimo baxtliman men deng siz.

Axir yetar chekkan ozori,
Dunyo emas qayg'u bozori.
Yuragimni avrayman yana,
Tag'in boshlar oh – vohin zorin.

Dardingni aytaqol menga sen,
Tushunaman men ham bir odam.
Yordamim tegarku oxiri ,
Men shoirman , sohibi qalam.

Nihoyat shivirlar dardini,
Endi qalbni kemirmas alam.
Qalam bosar qog'oz gardini.
Javob sensan, ey qoshi qalam!

Bog'da kezar edim...

Bog'da kezar edim, naqadar so'lim,
Qush kabi uchardi mening xayolim.
Osmondan boqadi la'l misol quyosh,
Atrofda lolalar so'zimga sirdosh.

Bog‘da kezar edim, naqadar so‘lim,
Giloslar yoqutdek, mayin qizargan.
Binafsha, rayhon-u atirgullarchi,
Xush bo‘yin taratar go‘yoki kulgan.

Bog‘da kezar edim, naqadar so‘lim,
Daraxtda sho‘x – shodon bulbullar sayrar.
Men ketib boryapman, tugamas yo‘lim,
Lek bu go‘zal bog‘da yuragim yayrar.

Bog‘da kezar edim, naqadar so‘lim,
Hayajondan titrar, hattoki qalam.
Bitib qolay dedi bog‘ haqda she‘rim,
Yurakda g‘ubor yo‘q, yo‘q gina, alam.

Bir bora...

Nigohingda hijron mujassam,
Yuragimni etmoqda pora.
Tushun, bardosh bermas irodam,
Avvalgidek boqgin bir bora.

Afzalroqdir gar bersang og‘u,
Ko‘ngil tinchir o‘shanda zora.
Gunohim ne? Ko‘zlari ohu,
Avvalgidek boqgin bir bora.

Oy yig‘lagan samoga ketgum,
Men uchun bu oxirgi chora.
Men so‘nggi bor senga yalingum,
Avvalgidek boqgin bir bora.

Harorat

Qalb tubida nedir yashirin,
Ko‘ngil aro g‘amlar tumonat.
Azoblaydi, oh meni hijron,
O‘rtab borar dilni harorat.
Hijron kelsa, ketarmish visol,
Chiqmasdiku, sendan jaholat?!
Ahvolimga qaragin bir bor,

O'rtab borar dilni harorat.

Sabo esar, sochingni silab,
Menga mayin iforni tashlab.
Bir chekkada qoldimku yig'lab,
O'rtab borar dilni harorat.

To'rtliklar

Ig'vogar va ilon ichidan,
Ilonni tanlasang bezarar.
Ilonku ketadi bir chaqib,
Ig'vogarchi? Bir umr chaqar.

Sokin kuz. Xazonlar shitirlar,
Ustlarida tomchi yiltirar.
Bu ularning ko'z yoshimikan?
Yer ularning sirdoshimikan?

H i k o y a l a r

* * * * *

Dahshatli tush.

Qishlog‘imizdagi kattalardan: “Qo‘shni qishloqqa eltadigan yo‘lda kechasi yurmanglar. U yerda jin va ajinalar aylanib yuradi.”, - deb eshitib yurardim. Rostdan ham bu daladan kechasi o‘tishga nainki yosh bolalar, hatto kattalarning ham yuragi betlamasdi. Ammo men bu gaplarga unchalik ishonmasdim.

Nima bo‘ldiyu, bir kun o‘sha qishloqdagi xolamning uylariga boradigan bo‘ldim.

Maktabdan qaytib kelgandan so‘ng, uydagi yumushlarni bajardim. Ko‘chada o‘rtoqlarim bilan to‘p tepib, qosh qoraya boshlaganini sezmapman. Uygga kirib naridan – beri choy ichgan bo‘ldimda, onamning gaplarini eshitmay xolamnikiga yo‘l oldim...

Dala ichida, yolg‘iz ketib borarkanman, miyamda ming xil fikr, qo‘l – oyoqlarim qo‘rquvdan titraydi. Daladan o‘tgach, quyuq darxtzorli so‘qmoqqa o‘tdim. Hamma yoq jim – jit. Onda – sonda chirildoqlarning cho‘zib chirillashi, tun shabadasida daraxt barglarining shitirlashi yurakni battar vahimaga soladi.

Shu payt... Ro‘paramda dahshatli, badbashara bir mahluq paydo bo‘ldi. Dahshatdan qotib qoldim. Mahluq esa so‘yloq tishlarini g‘ijirlatib: “Ha,

Yo'Ichivoy, nima qilib yuribsan? ", - deb qoldi. Men tamoman o'zimni yo'qotib qo'ygan edim. Ismimni qayerdan bildiykin? Tuyqustdan paydo bo'lgan bu savol meni uning yuziga yana bir bor tikilishga majbur qildi. Qarasam... Mahluq ko'zlarini chaqchaytirgancha menga yaqinlashib kelyapti. Jon – jahdim bilan qocha boshladim. Yugurib boryapmanu go'yo oyoqlarim joyidan qo'zg'almayotgandek. Nihoyat bir amallab uyga yetib keldim. Ostonadan hatlab yiqilib tushdim. Oyi....

“ O'g'lim, turaqol endi, maktabga kech qolasan axir. ” Oyimning shu gaplaridan uyg'onib ketdim. Hayron bo'lib qoldim. Nahotki shularning bari mening tushim bo'lsa. Ko'rganlarim tush bo'lib chiqqaniga biram sevindimki!

Boshim haliyam g'uvillab og'riyotganiga qaramay o'rnimdan turib yuvinib oldim. O'tirib naridan – beri choy ichdimu, maktabga, qadrdon do'stlarim oldiga yugurdim.

Buvinim – shirin xotiram.

Hali – hali esimda....

Bizlar, ya'ni men, opalarim, akam va buvim yoz oylari tashqarida yotardik. Hammamiz bir qatorda tizilishib. ko'rdim, burkanib oldikda, bu qatorda tizilishib. ko'rdim, burkanib oldikda, mattunkor ertaklarini maroq bilan tinglay boshladik. Buvinimning ertaklari xilma – xil qahramonlarga boy bo'lib, odamni o'ziga sehrlab oladi.

Bu orada eng kichigi menman. Biz buvim bilan yetti kishi yotamiz, shuning uchunmi, doimo “Yetti og`a – ini” yulduzlar turkumidan o`zimizga yulduz tanlaymiz. Men yulduzlar orasidan eng yorug`, chaqnab turganini tanladim. O`rtada tortishuv boshlandi. Buvim boshqa yulduzlarni maqtab – maqtab, akam va opalarimni shashtidan tushirdilar. Men buvimning qo`llaridan tortqiladim:

“Buvi, siz qaysi yulduzni tanlaysiz? Men yulduzimni beraymi?” “Yo`q.”, - dedilar buvim, - “Huv anavi, xiragina, ajralib turgan yulduz meniki. Chunki uni akalari oradan siqib chiqarishgan. U faqir yulduz. Faqirlarga esa mehr ko`rsatish kerak...” Buvim bir zum o`ylanib turdilar da birdan dedilar:

“Qara-ya, tanlagan yulduzing xuddi o`zingning ko`zingga o`xshaydi. Chaqnab turibdi.” “Ha,” - dedi akam, - “Siz tanlagan yulduz ham bamisoli ko`zingizdek xira tortib qolgan...” “Buvi,” - dedi kichkina opam, - “Ertak aytib beragoling.” “Xo`p, mayli. Yaxshilab quloq solinglar. Bor ekanu yo`q ekan, och ekanu to`q ekan. Dunyoning qaysidir bir burchida bir mamlakat bor ekan. Mamlakat xalqi tinch, ahil yasharkan. Shu yerda oltindan qurilgan saroyda kelishgan, o`ktam shahzoda yasharkan...” “Buvi, tezroq bo`lsangizchi, axir shahzoda qachon go`zal malikani topadi.”, - deyman men hovliqib. “Voy zumrasha – yey. Sen qayoqdan bilasan bu ertakni?” - dedilar buvim tutoqib...

Shu zaylda uxlab qolamiz. O`shanda qanday baxtli kunlar edi. Hozir esa buvim bir xotira...

Har tunda “Yetti og`a – ini” turkumidagi o`sha xira yulduzga tikilsam, buvimning ko`zlari va beozorgina urushib qo`yishlari ko`z oldimga keladi.

M U N D A R I J A

"O'n besh yoshli kapitan"ning yangi "yurishi" (so'z boshi o'rnida).....	3
Daryo va kecha.....	4
Tun chog'ida.....	6
Subh qo'ynida.....	7
Istiqlol muborak.....	8
Ona.....	9
Baxtli bolalik.....	9
Oy visoliga.....	10
Vatandin ayro.....	11
Erkinlik sharobi.....	12
Yomg'ir.....	13
O'tmish nigohi.....	14
Navro'z.....	15
Qish.....	16
Mash'um xato.....	17
Bolaligim.....	17
She'riyat.....	18
Dala uzra yoshligim.....	20
She'riyat , sen.....	21
Onamga.....	21
Lola va tomchi.....	22
Qush kabi uchar ko'ngillar.....	23
Esladim seni.....	25
Tun.....	25
Tunda.....	26
O,She'riyat.....	28
Bolalar.....	29
Bedor tun.....	30
Bog'da kezar edim.....	32
Bir bora.....	33
Harorat.....	34
To'rtliklar.....	35
Hikoyalar	
Dahshatli tush.....	36
Buvim – shirin xotiram.....	37

Ta'lat NAIMOV

BEDOR TUNLAR

(she'rlar, hikoyalar)

Taqrizchi: **Laylo SHARIPOVA.**
Muharrir: **Sadriddin Salim BUXORIY.**
Texnik muharrir: **O'tkir IBODULLAEV.**
Dizayn ustasi: **Anvar NAIMOV.**
Musahhih: **Shermat SHUKUROV.**

Nashr soni 84. Buyurtma 2967. Buxoro viloyat bosmaxonasida 300 nusxada chop etildi.